



### ***Feysbuk ijtimoiy tarmog'i orqali blogger Olimjon Xaydarov tomonidan "Nega obod qishloq dasturi chala qoldirildi? Qo'shtepa tumani Xumdon MFY hududida yashovchi fuqarolardan murojaat bo'ldi" sarlavhali xabar e'lon qilingan edi.***

Murojaat e'lon qilinganidan so'ng mazkur holat tuman hokimligi, "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ Qo'shtepa tumani bo'limi hamda "Xumdon" mahalla fuqarolar yig'ini vakillari ishtirokida o'rganib chiqilganida quyidagilar aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi "Obod qishloq" dasturi to'g'risida"gi PF-5386-sonli Farmoni ijrosini tashkil etishga qaratilgan "Obod qishloq" dasturini 2018 yilda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3630-sonli hamda viloyat hokimining 2 aprel kungi 160-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida tuman hokimining 2018 yil 10 aprel kungi 686-sonli qarori qabul qilingan. Qarorga asosan tumanning **2 ta ("Sohibkor", "Xumdon")** mahalla fuqarolar yig'inlari dasturga kiritilgan.

Ushbu dastur bo'yicha "Xumdon" mahalla fuqarolar yig'inida quyidagi ishlar bajarilgan.

#### **Ijtimoiy soha ob'ektlari bo'yicha;**

"Xumdon" MFY hududida **1 ta** maktab, **1 ta MTM** filiali mavjud bo'lib, shundan:

**3-umumta'lim** maktabi mahalliy byudjet mablag'laridan ta'mirlanishi rejalashtirilgan bo'lib, ta'mirlash ishlari olib borilgan.

"Xumdon" MFY hududida **1 ta 15-MTM** filialini ta'mirlash maqsadida **173.4 mln.** so'm mablag' xalqaro moliya inistitutlari mablag'lari hisobidan ajratilib, qurilish ta'mirlash ishlari olib borildi.

#### **Elektr tarmoqlari bo'yicha:**

"Xumdon" MFY hududida jami **3 ta TP** mavjud bo'lib, shundan **2 ta TP** mukammal ta'mirdan chiqarilib, **1 ta TP** hamda **113** dona temirbeton tayanchlar yangitdan o'rnatildi.

**4 km** tarmoq tortish ishlari rejalashtirilgan bo'lib, hozirgi kunda **2,4 km** yangi tarmoq tortish ishlari yakunlandi hamda **4.1 km 0.4 kVli** havo uzatmasi makammal ta'mirdan chiqarildi.

#### **Ichimlik suvi tarmog'i bo'yicha:**

"Xumdon" mahalla fuqarolar yig'ini Baxt ko'chasida yashovchi aholi honadonlarida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash maqsadida "Obod qishloq va Obod mahalla" dasturi doirasida yangi **2 km** tarmoq tortilishi rejalashtirilib, belgilangan ishlar o'z muddatida bajarilgan. Shuningdek, mahalla aholisi bilan hamkorlikda **200** metr tarmoq tortilib, Baxt ko'chasida joylashgan **1-ko'p** qavatli uyda joylashgan **18** ta honadon vakillari toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan. 2018 yil Obod qishloq dasturida murojaatda ko'rsatilgan Xumdonobod ko'chasiga ichimlik suvi tarmog'i tortish rejalashtirilmagan.

Mazkur Xumdonobod ko'chasida yashovchi aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ Qo'shtepa tumani bo'limi tomonidan 2021 yil 4-chorak yakuniga qadar **1.0 km** tarmoq tortish ishlari rejalashtirildi.

#### **Qo'shtepa tumani hokimligi**

#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2021-10-08 19:16:15